

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA RAMZLAR

Gavharoy MO'MINOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878059>

Annotasiya. Ushbu maqolada ramz tushunchasi va uni Shavkat Rahmon she'riyatidagi tadrijiga urg'u berildi. Shavkat Rahmon she'riyatida ramzlarning obrazlilik va ma'naviy yangilanish hodisasi, uning ijodiyotidagi muhit va davr munosabatlariga bog'liq holda amalga oshadi. Ramzlarning tag ma'nosi shoirning g'oya va istaklarini bayon qilibgina qolmay, she'r badiiy ta'sirchanligi, jozibadorligini oshiradi.

Kalit so'zlar va so'z birikmalari: badiiy-tasvir vositalari, simvol, an'anaviy obrazlar, obraz-ramz, ramz, ijtimoiy mavzu, bulbul, avtobus;

She'riyat – shoir qalbining aks-sadosi. Unda shoirning tuyg'u va tafakkur uyg'unligining jilosi akslanadi. Bu ikkisinin to'qnashuvidan yaralgan asar badiiy tasvir vositalari bilan o'zining mukammal shakliga ega bo'ladi. She'riyat rang-baranglikni yaxshi ko'radi, she'r tilining o'quvchini rom qilishi, jozibador va bo'yoqdor bo'lishi uning badiiy tasvir vositalarining mahorat bilan qo'llanilishiga bog'liqdir. Shunday vositalardan ya'ni poetik ko'chimlardan biri ramz (simvol) hisoblanadi. Uning Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llanilishi, ma'naviy tadriji o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ramzlar muayyan davr she'riyati va muayyan ijodkor she'rlari tahlili jarayonida o'rganilgan. Ramzlarning ma'naviy qirralari ham davr, muhit va shoir fitratidan, badiiy mahoratidan kelib chiqib ochiladi. Lug'atlarda ramzga shunday ta'rif beriladi: "... ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi"[1,245]. Ramzni simvol deb ham yuritimiz: "Demak, simvol obrazli ifodaning bir ko'rinishi bo'lib, badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarning ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'zlar birikmasidir. Shubhasiz, ko'chma ma'noda ishlatiladigan bunday so'z yoki birikmalar o'zlarining qandaydir xususiyatlari bilan tasvirlanayotgan hayotiy voqea va tushunchalarni eslatib turishi, biri ikkinchisiga ma'lum darajada o'xshab turishi lozim"[2,279]. Shunday obrazlarni obraz-ramz ramz deb qo'llashga qaror qildik. Shavkat Rahmon she'rlarida obraz-ramz asosiy obrazlar sifatida ko'p qo'llanilgan. Ijodkorning ramzlardan keng foydalanishiga asosiy omillardan biri davrning ijodkorga hamisha ham o'z g'oya va istaklarini ochiq bayon qilishga imkon bermasligi bo'lsa, boshqa bir omil mavhum tushinchani konkret yoki osonroq bayon qilishdir. Ramzlardan ijodkor o'zining ma'lum bir g'oyasi, qarashlarini ifodalashida foydalanishi mumkin. Shavkat Rahmon she'riyatining g'oyaviy tomonlari ham

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

ramzlar vositasida aniqroq tushiniladi. 70-80-yillarda she'riyati bosh g 'oyasi, tabiiyki, ozodlik va erk edi, ammo buni sovet ittifoqining ayni kuchga to 'lgan yillarida baralla aytishning imkoni yo 'q edi. Ramzlar yashirin mazmunlarni ifodalabgina qolmaydi, u she'r badiiylik darajasi yuksaltiradi. Zero, g 'oyani och-yalang 'och ifodalash she'ning badiiylik darajasini pasaytiradi. Kelajak avlod o 'quvchisi uchun she'rning g 'oyasidan ko 'ra, badiiyati muhimroq. Shavkat Rahmon har ikkisini uyg 'un qo 'llashi, so 'zga bo 'lgan ehtiromi, bugungi kun adabiyotidagi yuksak o 'rinini belgilab beraolgan desak yangilishmaymiz. Shoirning so 'zga bo 'lgan munosabati “Qasam” she'rida o 'z ifodasini topadi.

Shavkat Rahmon degan

bir o 'jar shoir,

bir kuni qaytadan yaraladimi?

Hayotim ma'nisin juda ko 'p o 'ylab,

sayladim so 'zlarning

saralarini.

Har bir so 'z

yuz so 'zning o 'rnini bosar –

Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik[3].

Obraz va simvolning adabiyotdagi ahamiyati haqida rus olimi V.Potebnya fikrlarida, ularni ilm-fan yo 'nalishlaridagi yaratuvchilikning negizi sifatida ta'riflash asnosida haqiqatni izlash zavqi faqat individual ijodkor uchungina emas, kishilik madaniyatining shakllanishi va jamiyat taraqqiyoti uchun ham harakatlantiruvchi kuch vazifasini o 'tay olishini, bu esa o 'z navbatida adabiy-madaniy yodgorlik yoki yuksak darajada badiiy kristallangan ma'naviyat odamlarni va umuman jamiyatni kamolotga etaklashini qayta-qayta ta'kidlagan[4,42]. Obrazlarning mazmuni ramzlar orqali namoyon bo 'ladi, bir obrazning o 'z ma'nosidan tashqari yashirin, ma'lum asar doirasidan kelib chiqqan ma'noga ega bo 'lishi obraz-ramzni yuzaga keltiradi. Shavkat Rahmon ijodida ko 'plab obraz-ramzlarni uchratish mumkin. Bunday obrazlardan biri *bulbul* obrazidir. Bulbul an'anaviy obraz bo 'lib, har bir davr she'riyatida o 'ziga xos ma'no-mazmun qirralariga ega. Mumtoz adabiyotda yor ishqida yonayotgan oshiq timsoli sifatida gavdalangan bulbul, shoir ruhiy kechinmalarini aks ettirib, g 'azalga o'zgacha ruh, ramziy ma'no yuklaydi. Hazrat Navoiy she'riyatida bulbul tasviri turli ma'nolarni ifodalaydi. Quyida bulbul va gul yonma-yon tasvirlangan:

Bu chamanda tortibon bulbul tong otguncha fig 'on,

Ishq darsin go 'yiyo gul daftaridan o 'rganur.[5,76]

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Navoiy g‘azallarida gul va bulbulning birgalikda qo‘llanishi ko‘pincha Olloh go‘zalligining bir ko‘zgusi bo‘lmish gulga *oshiq kishi* ma’nosini ifodalaydi. XX asr she’riyatning ijtimoiylashuvi, yangilanishi bu kabi an’anaviy obrazlarning yangilanishiga sabab bo‘ladi. Shavkat Rahmon she’riyatida jadid adabiyotiga yaqinlik sezilishini hisobga olib qaralganda, bulbul obrazining yashirin ma’nosi ijtimoiy dardlar bilan tutash ko‘rinadi. Shoir qator she’rlarida bulbul obraziga ijtimoiy-falsafiy ma’no yuklaydi. Bulbul uning she’rlarida lirik qahramonning kechinmalari, orzu-istaklari bilan urayotgan *yuragi* ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

*Kunlar pisha boshaydi yana,
Ranglarini boshingda elar.
Xayolingni chaqmoqlar kabi
Yorutguvchi lahzalar kelar.
Yana yaproq yozgan daraxtga,
Atirgulga do‘narsan nuqul.
Kechalari chap ko‘kragingda
Qafasini sindirar bulbul.[3,57]*

Qafasini sindirayotgan bulbul, yorug‘ lahzalar kelishini sezayotgan, erk nafasini his qilayotgan lirik qahramon qalbiga isgora qilmoqda. Shavkat Rahmon she’rlari uning qalbidan taralgan honish edi. U butun umr haqiqatni va yana haqiqatni kuyladi. Atrofidagi mayda tashvishlarga berilib asl o‘zligini unutgan, ertasidan qayg‘urmaydigan kimsalarni ogohlikka chorladi, mehnatdan qo‘li qadoq orzu-istaklari keraksiz sodda xalqiga achindi hamdard bo‘ladi. Xalq dardini o‘zini qildi va har bir otilgan toshga qalqon bo‘ladi. Borib-borib bu toshlar shoir yuragini hastalanishiga olib keldi. Afsuski, Shavkat Rahmon ayni ijodiy kamolotga erishgan paytida olamdan o‘tdi. So‘nngi she’rlaridan birida hasta bulbulga murojat qilib deydi:

*Ayt, ey hasta bulbulim,
O‘shga qachon etamiz?
Yashil bog‘lar sarg‘adi,
Mag‘iz bo‘ladi g‘ujumlar.
Oh, voy, muncha yo‘l og‘ir;
Bulbulim...[3,464]*

Yana bir o‘ziga xos obraz-ramzlardan biri *avtobus*. Shoir “Avtobusdagi o‘ylar” she’rida ijtimoiy mavzuni qalamga olgan. She’rda yo‘l, yo‘lovchilar, avtobus asosiy obraz sifatida ijtimoiy-falsafiy mazmun tashiydi. She’r avvali yo‘l manzaralaridan boshlanadi. U yerda shunchaki manzara emas o‘sha davr insonlarining turmush tarzi, o‘y-kechinmalarining portreti hisoblanadi. She’rda ikki xil manzarani ko‘rish mumkin: avtobus tashqarisi va avtobus ichi – ularning har biri

o 'zgacha ma'nolarni ifodalaydi. Har bir tasvirni umumlashtiruvchi obraz avtobus ham ramziy ma'no kasb etadi:

*Mayxonaga o 'xshar
Avtobus ichi,
Yosh-yalanglar chaynar nag 'malarini.
Bir butun odamni ko 'r madim bunda,
Ko 'r dim men odamning zarralarini.
Ko 'ngil ag 'darilar
Latifalardan,
Orzular, qarashlar naqadar kalta.
Nega gapirishmas separatchilar
Indira Gandini otgani haqda?![3,260]*

Avtobusning ichi manzarasidan, uning qanday ramziy ma'noga ega ekanligi aniqroq namoyon bo'ladi. Atrofidan bexabar, dunyoqarashi kalta, yurt kelajagi to'g'risida fikr yuritmaydigan kishilarni jamlagan avtobus – o'sha davr muhitiga ishora. Sobiq sho'ro davridagi muhit xalqning ma'naviy, tarixiy, ruhiy olamiga huruj qildi, oqibatda ruhan siniq, mo'te, o'zligidan yiroqlashgan, yotg'oyalar, ta'qib va yolg'onlar girdobida qolgan avlod shakllanishiga olib keldi. Shoir bu mudroq tortayotgan avlodni ogohlikka chaqiradi:

*Qani birortasi
Bitta so'z aytsa,
So'qimlar davrasin nogoh to'zitib.
Shoir yuragimni yulib berardim
Birgina Turkiston degan so'z uchun.[3,260]*

Shavkat Rahmon she'rlarida boshqa ko'chim turlari qatorida ramzlar ham katta ahamiyatga ega. Bu ramzlar obrazlilikka erishib she'r badiiyati yuksakligi jozibadorligini oshiradi va mazmun-mohiyatini anglashilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T: Akademnashr, 2010. – B.245.
2. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-uzbekcha izohli lug'ati. – Toshkent, 1979. – 279 b.
3. Shavkat Rahmon. Zulfiqor ruh. – Toshkent. "Anorbooks", 2023. – B. 512.
4. Потебня В. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – С.42.
5. Alisher Navoiy. Vadoye ul-vasat. TAT. 10 jildlik, 3-jild. -T., 2011.
6. Бахтин, М. М. Вопросы литературы и эстетики [Текст] / М. М. Бахтин. – М. : Художественная литература, 1975. – С. 309.
7. Валентинов, Н. Два года с символистами [Текст] / Н. Валентинов. – М. : XXI век – Согласие, 2000. – С. 88.

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

8. Ханзен-Лёве, А. Русский символизм. Система поэтических мотивов. Мифо-поэтический символизм [Текст] / А. Ханзен-Лёве ; пер. с нем. М. Ю. Некрасова. – Т. 48. – СПб. : Академический проект, 2003. – С. 16.
9. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
10. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
12. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
13. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
14. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).